

"Jaholatga qarshi ma'rifat" mavzusida uchrashuv tashkil etildi

// 17.09.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jaholatga-qarshi-ma-rifat-mavzusida-uchrashuv-tashkil-etildi>



Bugun "O'zkimyosanoat" Ajda "Jaholatga qarshi ma'rifat" mavzusida uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda Din ishlari bo'yicha qo'mita xodimi Nurillaxon Mukarramxonov, jamiyat rahbariyati hamda xodimlari ishtirok etishdi. Unda ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish, salbiy illatlarning oldini olish, turli yot g'oyalarga qarshi immunitet hosil qilish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri va maqsadli foydalanish, turli yolg'on axborotlar va manbalardan ogoh bo'lish borasida fikr almashildi.



"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati